

“EVRILISH” HIKOYASIDAGI RAMZLAR TAHLILI

Jumayeva Umidaxon Ikromjon Qizi –

ToshDO‘TAU talabasi

jumayevaumida169@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ish XX asr nemis adabiyotining yirik vakili Franz Kafkaning “Evrilish” asarida insonning jamiyatdan begonalashuvi, ruhiy izolyatsiyasi va shaxsiy erkinlik masalalarini tahlil qiladi. Tadqiqotda Gregor Zamza obrazi orqali zamonaviy insonning ijtimoiy bosim, ma’naviy charchoq va o’zligini yo’qotish jarayoni falsafiy nuqtai nazardan o’rganiladi. Asarda ekzistensializm g’oyalari, ramziylik va absurdlik unsurlari badiiy shaklda ifodalangan. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, “Evrilish” inson ruhiyatining murakkabligi va zamonaviy hayotdagi begonalik holatini chuqur falsafiy ma’noda ochib beruvchi asar sifatida o’z ahamiyatini yo’qotmagan.

Kalit so’zlar: izolyatsiya, ruhiy tushkunlik, metamorfoz, ichki ziddiyatlar, asosiy qahramon.

Аннотация: В данной работе анализируется роман Франца Кафки «Превращение», классическое произведение немецкой литературы XX века, с акцентом на темы социальной отчужденности, психологической изоляции и личной свободы. Через образ Грегора Замзы исследуется потеря человеком своей индивидуальности под давлением общества и моральная усталость. В произведении художественно выражены идеи экзистенциализма, символизм и абсурд. Результаты исследования показывают, что «Превращение» остается значимым произведением, глубоко раскрывающим сложность человеческой психики и проблему отчуждения в современном обществе, сохраняя философскую и литературную актуальность.

Ключевые слова: изоляция, психологическая депрессия, метаморфоз, внутренние конфликты, главный герой

Abstract: This study analyzes Franz Kafka's "The Metamorphosis", a major work of 20th-century German literature, focusing on the themes of social alienation, psychological isolation, and personal freedom. Through the character of Gregor Samsa, the research explores the modern individual's loss of self under social pressure and moral fatigue. The novella artistically expresses existentialist ideas, symbolism, and absurdity. The findings demonstrate that "The Metamorphosis" remains a significant work that profoundly reveals the complexity of the human psyche and the condition of alienation in modern life, retaining its philosophical and literary relevance.

Keywords: isolation, psychological depression, metamorphosis, inner conflicts, main character

Inson hayoti davomida boshqalar uchun borini berib yashashi va bunga javoban faqat adolatsizlik ko'rishi qanchalik achinarli bo'lmasin nafaqat XX asr balki hozirgi kunda ham jamiyatimizda shunday insonlar real hayotda mavjud. Franz Kafkaning boy ijodida shunday dolzarb mavzular keng tahlil qilinadi. Ana shunday asarlardan biri Evrilish hisoblanadi. Yozuvchining asarlarida xususan Evrilishda uning bolalikdan qolgan ruhiy zarbalari boshqalardan ajralib qolganligi va hayot yo'lidagi qiyinchiliklari yaqqol seziladi. Ko'plab tahlilchilarning fikriga ko'ra Kafka fantast yozuvchi emas uning barcha asarlari real hayotdan olingan va deyarli hammasi metafora usulida yozilgan. Ushbu tezisda aynan shu va shunga o'xshash nazariyalarga e'tibor qaratiladi.

Franz Kafka 1883 yilning 3 iyulida Praga shahrida tug'ilgan. Otasi o'z mehnati tufayli shaharda kichikroq bir fabrikaning egasi bo'lgan. Kafka Pragadagi nemis gimnaziyasini tugatib 1901–1905 yillarda Praga universitetida huquqshunoslikni o'rgandi shuningdek san'at tarixi va nemis filologiyasi bo'yicha ma'ruzalar tingladi. 1906–1907 yillarda Praga shahar sudining advokatlar idorasida amaliyot o'tdi. 1907

yil oktabridan boshlab xususiy sug'urta jamiyatida ishladi. 1908 yilda Praga tijorat akademiyasida malakasini oshirdi. Shundan so'ng turli kam maoshli tashkilotlarda ishladi. 1917 yilda Kafka sil kasaliga duchor bo'ldi va 1922 yilda nafaqaga chiqdi. 1923 yilda u Berlinga ketdi ammo sog'ligining yomonlashuvi sababli Pragaga qaytishga majbur bo'ldi. Franz Kafka 1924 yil 3 iyunda Vena atrofidagi Kirlingda vafot etdi. Asarlari: *Bir kurash tarixi* 1902–1903 *Qurilish* 1923 *Amerika* 1911–1916 *Jarayon* 1915–1918 *Qo'rg'on* 1921–1922 *Evrilish, Hukm, Jazo koloniyasida, Ochlik ustasi, Otamga xat* va boshqalar.

Erta tongda uyg'onib o'zingizni hasharotga aylanganingizni tasavvur qiling [10]. Bunday vaziyatda qanday ahvolga tushgan bo'lardingiz? O'zingizni endi hech kimga kerak emas deb bilganingizda nimalarni his qilgan bo'lardingiz? Albatta bu jarayonda bo'lishning o'zi og'ir.

Franz Kafkaning Evrilish hikoyasida shunday g'aroyib voqea Gregor Zamza hayotida sodir bo'ladi. Gregor Zamza savdo gumashtasi sifatida ishlardi. U shunchalik ko'p mehnat qilgan ediki lavozimi tezda ko'tarilib borardi. Uning qartayib qolgan otasi bo'g'ma kasalga chalingan onasi va skripka chaladigan 17 yoshli singlisi bor edi. Tabiiyki butun oilaning xarajatlari va ro'zg'or tebratish vazifasi Gregorning zimmasida edi.

Kunlardan bir kun u hasharot holidagi uyg'onadi. O'sha kuni u tonggi soat 7 da ish yuzasidan safarga jo'nab ketishi kerak edi ammo vaziyat taqazosi bilan kechikadi. Oila a'zolari uni uyg'otishga harakat qilishadi lekin Gregor eshikni ochmaydi. Uyga uning ishxonasidan menejeri keladi. Vaziyatni ko'rib hayratdan yoqa ushlab qoladi. Onasi o'g'lini ko'rib hushdan ketadi otasining tili aylanmay qoladi.

Biroq oila asta-sekin bu holatga ko'nika boshlaydi. Endi ularning eng katta tashvishi Gregorning ahvoli emas balki ro'zg'orni qanday tebratish masalasiga aylanadi. Gregor o'z xonasidan chiqmaydi hech kim uning oldiga yurak yutib kirishga jur'at qilmaydi. Faqat singlisi unga ovqat berib turadi. Ammo Gregor borgan sari hech narsa yeyishni istamay boradi. Vaqt o'tishi bilan butun oila go'yo Gregorni unutib

qo'yadi. Faqat uning oilaga og'irligi tushayotgani seziladi otasi arzimas bo'lsa ham ish topadi onasi buyurtma asosida kiyim to'qishni boshlaydi. Singlisi ham sotuvchi bo'lib ishga kiradi. Uyga 3 ta ijarachi qo'yadilar. Gregorning xonasini esa omborxona qiladilar. Bir oqshom ijarachilar bilan bazm vaqtida singlisi skripka chala boshlaydi.

Musiqqa ovozigina shaydo bo'lgan Gregor beixtiyor xonasidan chiqib keladi. Buni ko'rgan ijarachilar ijara kelishuvini bekor qilishlarini aytadi. Qattiq asabiylashgan oila Gregordan qutilishni xohlaydi. Ortiqchalik qilayotganini ochiq tan oladilar. Gregor qattiq xafa bo'ladi. Qolaversa, otasi bir kuni unga zarb bilan olma otadi. Olma tanasiga tiqilib qolib, chirib, tanani ham chirita boshlaydi. Necha kunlardan beri ovqat yemay holdan toygan, jarohati azobidan qiynalgan va ruhiy tushkunlikda bo'lgan yigit – hasharot shu kuni vafot etadi. Ertasiga ertalab Gregorning o'lganini eshitgan butun oila yengil tortadi va kelajak uchun yangi rejalar tuza boshlaydi. Qizlarini boyroq yigitga erga berishlari kerak deb qaror qilishadi.

Asarning g'oyaviy mazmuni juda chuqur va ko'p qirralidir. Asarning markazida Zamzaning ijtimoiy hayotdan begonalashuvi turadi. Tirik inson yoxud ongli mavjudot sifatida odamlar orasida yashasada, aslida ruhiy va ma'naviy jihatdan jamiyatdan ancha yiroqlab ketgan edi. Ish, majburiyat va oila bosimi uni insoniy qiyofasidan mahrum qilgan edi. Zamzaning qo'ng'izga aylanib qolishi ramziy jihatdan ijtimoiy hayotdan, insonlardan uzoqlashganligini bildiradi. Bundan tashqari insonning moddiyati bilan o'lganadigan qadri ham asarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Zamza qo'ng'izga aylanib qolganida hatto ota-onasi ham uni keraksiz buyumga chiqarib qo'yadi. Asardagi asosiy g'oya esa jamiyatda odam foydaliligi bilan baholanishi, insoniyligi bilan emas.

Evrilish asari avtobiografik xarakterga ega bo'lib, shaxsiy kechinmalar asosida qurilganligiga qaramay, inson borlig'i paradigmasini chuqur ifodalaydi. Adibning fantaziyasi kundalik hayotdan uzoq, ko'pincha dahshatli tasavvur va badburush qiyofagacha o'zgargan obrazlarni tug'diradi. Kafka ushbu tasavvur va obrazlarni yuzaga chiqarib, real hayotning puxta tasvirlangan manzaralariga

singdiradi. Ikki dunyoni ajratib turuvchi yupqa parda ortida bir vaqtning o'zida sodir bo'layotgan mudhish va go'zal manzaralarni tasvirlarkan, Kafka ruhiy va moddiy olam o'rtasidagi tutash, bir-biriga yaqin joylarni topishga harakat qiladi [4].

Asardagi eng asosiy simvollardan biri Zamzaning hasharotga aylanib qolishidir. Bu uning jamiyatdan begonalashishi, ajralib qolishi va ruhan yolg'izlanishini bildiradi. Shu bilan birga bu holat butun insonning oddiy mehnat quliga aylanishini timsol qiladi. Yana bir majoziy ramz – Gregor yashaydigan xona. Shu xona uning ruhiy qafasi sifatida ko'rsatiladi va Kafka ruhning qamalganligi, erkinlikdan mahrum bo'lishini anglatadi. Gregorning ota-onasi va singlisi ham ramz sifatida jamiyatni ifodalaydi. Jamiyat manfaatsiz kimsalardan yuz o'girishini ko'rsatadi. Eshik va derazalar ham ramz hisoblanadi. Gregor jim mo'ralaydi, lekin chiqib keta olmaydi. Deraza va eshiklar erkinlikni bildiradi, ammo undan chiqish qiyin [3].

Ekzistensializm nuqtai nazaridan, Gregor boshdan oxirigacha yolg'iz edi. U ruhan yolg'iz va begona bo'lib, hasharotga aylanib qolishi bilan bu jarayon jismonan sodir bo'ladi. Gregorning hayoti ma'nosiz edi, u ishga borar, ishdan qaytar va deyarli o'zi uchun yashamas edi. Otasining harajatlarini qoplash, onasining kasalligiga qarshi dori-darmonlar olish va singlisini musiqa akademiyasida ta'lim olishi uchun pul topish uning hayot maqsadlari edi. Shu sababli uning hayotining na ma'nosi na mazmuni bor edi.

Gregor o'limi esa erkinlik ramzidir. U ruhan qamalgan, hasharot bo'lgach jismonan ham qamalgan edi. Vaqtlar o'tib o'lim uni ruhan va jismonan ozodlikka olib chiqdi [3]. O'lim insonni ijtimoiy tizimdan ozod qiluvchi yakuniy holat sifatida asarda ko'rsatilgan. Olma timsoli Kafkaning bolalikda olgan ruhiy zarbalarini, aynan otasi tomonidan berilganligini bildiradi. Gregorga otilgan olma yelkasida chirib, azob beradi. Bu jarayon Kafkaning bolaligi bilan bog'liq.

Asarning falsafiy mohiyati shundaki, insonning tashqi qiyofasi emas, ichki dunyosi, o'zligini anglash qobiliyati uning haqiqiy insoniyligini belgilaydi.

Gregorning jonzotga aylanishi uning jamiyat nazarida qadrsizlashishini ifodalaydi. Kafka shu orqali o'quvchini men kimman, jamiyatdagi o'rnim qanday, insonning qadri nimada kabi savollar ustida o'ylashga undaydi.

Frans Kafkaning "Evrilish" asari yozilishi jihatidan juda kichik hajmli hikoya bo'lsada, asar mohiyati juda kuchli tahlillarga sabab bo'la oladi. Insonning qadriyati, uning erkinlik va o'zlik timsollari yaqqol yoritilgan ushbu asarda jamiyat va inson o'rtasidagi kamchiliklar oldinga suriladi. Hayot boshqalarni o'ylash va boshqalar uchun o'zligidan voz kechishga juda qisqa. Zamzaning o'limi bu uning halokati emas balki, ijtimoiy erkinlik va ruhan ozodlikka erishish timsolidir. Zamza timsolida inson erkinlikka intilishi ammo shu bilan birga o'z majburiyatlari asiriga aylanishini ko'rsatadi. Asarda ramziylik va psixologizm ustalik bilan uyg'unlashtirilgan. Hasharotga aylanish sahnasida Kafka insonning ruhiy evrilishini yaqqol namoyon qila olgan.

Reference

1. G.Mamarasulova "INGLIZ ROMANTIZM ADABIYOTIDA SHARQQA YAQINLASHUV HODISASI." O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari (2024): 955-958.
2. Mamarasulova, G. (2020). ЕВРОПАДА “ОРИЕНТАЛИЗМ” КОНЦЕПЦИЯСИНING КЕЛИБ ЧИҚИШИ ҲАҚИДАГИ БАҲС-МУНОЗАРАЛАР. Архив Научных Публикаций JSPI.
3. Kafka F. Evrilish. – Toshkent, 2024.
4. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari – Toshkent, 2023.
5. Amirqulov D. The TAQLID SO 'ZLARNING O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O 'RNI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 01.
6. Mahmadiyor Asadov. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus' the stranger. American Journal of Philological Sciences, 5(03), 119–123. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume05Issue03-30>

7. Асадов М. (2020) Альбер Камю ва Хуршид Дўстмуҳаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси/ “Сўз санъати сўзлиги”, 3 жилд, 2 – сон. Тошкент. 2020 йил. – Б.117 – 126.
8. Асадов М. (2023). “Ёлғизлик мотиви”нинг поэтик талқини. SHARQ-U G‘ARB RENESSANS ADABIYOTI: NAVOIY VA SHEKSPIR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 1(1).
9. Asadov, Mahmadiyor. (2022). Existential interpretation of the motive of “loneliness” in the work “the stranger” by Albert Camus. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 12. 1-6. 10.5958/2249-7315.2022.00065.X.
10. www.demokrat.uz